



**O'SISH YOSHDAGI BOLALARNING YUQORI VA PASTKI
JAG'LARINI KAM HARAKATLIGI NATIJASIDA O'SISHDAN ORQADA
QOLISHI.**

Jabborova Durdona Maruf qizi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti

Tibbiyot fakulteti Stomatologiya yo'nalishi

1-bosqich talabasi

[Tel:+998975591404](tel:+998975591404)

E-mail: durdonajabborova17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola yuqori va pastki jag'larning yoshga doir xususiyatlari, yuqorigi va pastki jag'ning o'smirlik davrida o'sishi va o'smay qolish sabablari haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: , yuqori jag' anatomiyasi , pastki jag' anatomiyasi, yuqori va pastki jag'ning harakatlantiruvchi mushaklari, genetik omillar, irsiy omillar.

Jag' - Odamda yuz skeletidagi eng yirik suyak. Yuqori va pastki jag'larga bo'linadi. Yuqori jag'ning alveolyar o'sig'ida va pastki jag' tanasining tepa qirralarida tishlar turadigan katakchalar bor. Yuqori jag' (bir juft) murakkab tuzilgan burun, ko'z kosasi va og'iz bo'shliqlarini hosil qilishda faol qatnashadi. Uning tanasi va 4 ta o'sig'i bor, chakka osti va qanottanglay chuqurlarining tuzilishida ishtirok etib, yuzning hamma suyaklari bilan birlashadi.

Pastki jag' (toq) — juda qattiq va yo'g'on suyak. U chakka suyagi bilan bo'g'im tuzib birlashadi, og'izni ochib-yumish va yon tomonga harakat shu bo'g'imda bajariladi. Pastki jag' suyagi bag'rida kanal bo'lib, undan tomir va nervlar o'tadi. Yuqori jag' kasalliklaridan gaymorit, pastki jag'da esa osteomiyelit va suyak sinishi ko'proq uchraydi

Yuqori jag' - maxilla kallaning yuz qismini hosil etishda qatnashadigan, g'ovakli suyaklar guruhiga kiradi. Bu suyakda tanasi - corpus maxillae va to'rtta



o'simtasi tafovut etiladi. Peshona suyagi bilan birlashadigan, yuqori tarafga yo'nalgan o'simtaga processus frontalis, tanglay suyagi bilan birlashadigan o'simtaga processus palatinus, yonoq suyagi bilan birikuvchi o'simtaga processus zygomaticus, tishlar joylashadigan o'simtaga processus alveolaris deyiladi. Yuqori jag ' suyagining ichida katta, havo saqlaydigan bo'shliq - sinus maxillaris bo'lib, burun bo'shlig'i bilan aloqa bog'laydi.

Yoshga doir xususiyatlari : Homila taraqqiyotining 5-oyida burun bo'shlig'i shilliq pardasi yuqori jag'ni medial tomonini qoplagan qismiga o'sib kiradi va yuqorigi jag' bo'shlig'i taraqqiy eta boshlaydi. Yangi tug'ilgan chaqaloq yuqori jag' suyagining tanasi va 4 o'sig'i tafovut qilinadi. Suyak tanasi yaxshi takomillashmagan, bo'yi past bo'lgani uchun ko'z kosasining pastki qirrasini alveolyar o'siqqa yaqin. Peshona, yonoq, tanglay o'siqlari yaxshi rivojlanmagan bo'lib, alveolyar o'siq arang bilingan. Emizikli davrda suyak ancha tez o'sadi. Alveolyar o'siqni tashqi tomonida alveola tepaliklari, o'siq ichida esa tish alveolalari va ular o'rtasida alveolalararo to'siqlar paydo bo'ladi. Erta bolalik davrida yuqorigi jag' juda tez o'sib, tanasi kattalashadi. Bolalikning ikkinchi davrida tishlar almashinuvidan so'ng suyak tanasi yanada kattalashadi. Uning tashqi relyefi tugallanib, katta odamlamikiga o'xshab qoladi.

Balog'at davrida esa uning jinsiy va shaxsiy xususiyatlari paydo bo'ladi.

Pastki jag' - (mandibula) kalladagi birdan-bir harakatchan toq suyak bo'lib, chakka suyaklari bilan chakka-pastki jag' bo'g'imini hosil qiladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqning pastki jag' suyagi o'zaro biriktiruvchi to'qimali qatlam vositasida ajralgan ikki bo'lakdan iborat. Pastki jag' tanasining asosi yaxshi takomillashmagan bo'lib, unda tish kurtaklari ko'rinadi. Engak osti do'ngi va o'simtasi yo'q. Tananing alveolar qismi yaxshi bilinmaydi. Pastki jag'ning tanasi shoxi bilan 140-150° burchak hosil qilib qo'shiladi. Bo'g'im o'simtasi kam rivojlangan, bo'yni qisqa va yo'g'on. Qisqa boshchasi tog'aydan iborat ko'ndalangiga cho'zilgan. Tojsimon o'simtasi nisbatan yaxshi rivojlangan, pastki jag' o'ymasi keng. Emizikli davrda suyak tez o'sadi, uning tanasi va shoxi kattalashadi. Bu davrda



pastki jag'ning ikkala bo'lagi o'zaro qo'shilib bitta suyakni hosil qiladi. Kurak tishlar chiqishi hisobiga alveolar o'simtaning oldingi qismi o'sadi.

Bola organizmining o'sish va rivojlanish jarayonida yuz-jag' tizimi muhim ahamiyatga ega. Jag' suyaklari nafaqat chaynash apparatining asosini tashkil etadi, balki yuz skeletining shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Ustki va pastki jag' suyaklarining yetarli darajada o'smasligi turli xil tish-jag' anomaliyalariga olib keladi. Bu esa ortodontik muammolar, psixologik noqulayliklar va funksional buzilishlarni yuzaga chiqaradi.

Ustki jag' (maxilla) juft suyak bo'lib, yuz skeletining markaziy qismini tashkil etadi. Pastki jag' (mandibula) esa yagona harakatchan suyak hisoblanadi. Ularning o'sishi asosan genetik omillar va gormonal boshqaruv ostida kechadi. O'sish jarayonida suyak to'qimasining proliferatsiyasi va remodelatsiyasi sodir bo'ladi. Bu jarayonlar muvozanati buzilganda jag' rivojlanishida ortda qolish kuzatiladi. Jag' suyaklarining o'smasligi ko'p omilli jarayon bo'lib, quyidagi sabablarga ega bo'lishi mumkin

1. Genetik omillar – irsiy sindromlar va nasliy xususiyatlar.
2. Endokrin buzilishlar – o'sish gormoni yetishmovchiligi, qalqonsimon bez kasalliklari.
3. Noto'g'ri ovqatlanish – kalsiy, D vitamini yetishmovchiligi.
4. Surunkali kasalliklar – raxit, anemiya.
5. Nafas yo'llari patologiyasi – og'iz orqali nafas olish odati.
6. Yomon odatlar – barmoq so'rish, noto'g'ri emizish.

Jag'larning kam harakatliligi sabablari:

1. Irsiy omillar – genetik predispozitsiya jag'larning kichik yoki noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.
2. Noto'g'ri odatlar – barmoq so'rish, uzoq muddatli so'rg'ich ishlatish, tirnoq tishlash.
3. Nafas olish buzilishlari – adenoidlar va surunkali rinit tufayli og'iz orqali nafas olish.



4. Oziqlanish xususiyatlari – faqat yumshoq ovqat iste'moli chaynash mushaklarini sust rivojlantiradi.
5. Temporomandibulyar bo'g'im patologiyalari – yallig'lanish yoki travmalar.
6. Ortodontik muammolar – tishlarning noto'g'ri joylashuvi.

Jag' harakatlari suyak o'sishini rag'batlantiradi. Funktsional yuklama yetarli bo'lmaganda suyak to'qimasi kam rivojlanadi, mushaklar zaiflashadi va yuz skeletining simmetriyasi buziladi.

Og'izni to'liq ocholmaslik, chaynashda og'riq, bo'g'imda chertish tovushi, tishlarning notekis joylashuvi, yuz simmetriyasining buzilishi va nutqdagi kamchiliklar va boshqalar.

Xulosa

O'sish yoshidagi bolalarda yuqori va pastki jag'larning kam harakatliligi ko'p omilli etiologiyaga ega. Irsiy omillar, noto'g'ri odatlar va nafas olish buzilishlari asosiy sabablar hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Nazarov.S.X, Usmonov.R.J, .Shomirzayev N.H. “ Topografik anatomiya”. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik.27-bet
2. Boyqulov.M.CH, Nazarov.S.H,.Tshaev.SH.J, , .To'xsanov.N.E.“ Operativ jarrohlik va topografik anatomiya”. Tibbiyot institutlari stomatologiya fakulteti talabalari uchun darslik.
. Buxoro-2010 39-bet
3. Ahmedov.A.G'."Odam anatomiyasi". Tibbiyot institutlarining bakalavr yo'nalishidagi talabalar uchun darslik Toshkent."Iqtisod-moliya".2007. 53-bet
4. Azimov.M.I.“ Jarrohlik stomatologiyasi propedevtikasi “ Tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2009 13-bet
5. Adilbekova D.B, Mirsharapov U.M, Sagatov T.A, Sadikova Z.SH, Xasanov N.A, Shamirzaev N.H
. “ Odam anatomiyasi “ o'quv uslubiy majmua 11-bet

6. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ